

# 30-APREL, yakshanba kuni referendumda ishtirok etish ESINGIZDAN CHIQMASIN-A!

Ovoz berish soat 8:00 dan 20:00 gacha o'tkaziladi.



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 27-aprel, payshanba,  
49 (23.770)-son

# Zarafshon

www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> @zarnews\_uz [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

**KUN HIKMATI**

Ma'naviyat o'z-o'zidan shakllanmaydi, uni turmush tarziga aylantirish, har kuni mashq qilish lozim



## Elektron tijorat va IT sohasidagi ilk ko'rgazma

Jomboy tumanida joylashgan "SOF EXPO Samarkand" ko'rgazmalar markazida ilk marotaba elektron tijorat va chakana savdo sohasi mutaxassislar uchun "ECOM & Retail EXPO Samarkand" xalqaro ko'rgazma-forumi ish boshladi.

Ushbu ko'rgazmada mahalliy va xalqaro ma'rurachilar, kompaniyalar va kuzatuvchilar IT sohasidagi so'ngi ishlanchalar, dasturlar va xizmatlarni taqdirmoqda. Forumda Markaziy Osiyo va MDH davlatlaridan 20 dan ortiq korxonalar, 30 dan ziyod mahalliy va xalqaro kompaniya rahbarlari va ma'rurachilar ishtirok etmoqda.

Ushbu ko'rgazma elektron tijorat va chakana savdo sohasidagi eng yirik ko'rgazma hisoblanadi va bu texnologiyalar, innovatsiyalar, moliyaviy tizimlar va banking, onlayn sotish va sotib olish, raqamli marketing, ta'minot zanjirini boshqarish, transport xizmatlari, chakana savdo mutaxassislar va biznesni boshlash, kengaytirish uchun boshqa xizmatlar jamlanmasidir. Tadbir Marketplace vakillari, FinTech, startaplar, onlayn va oflayn savdo uchun IT xizmatlar, davlat idoralari (B2G), onlayn-do'konlar, mahsulot ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar, logistika va kurerlik xizmatlari, elektron tijorat va chakana savdoga qiziquvchilar uchun qulay maydondir.

Ikki kunga mo'ljallangan forumda ekspertlari ishtirokida onlayn-tijorat texnologiyalarini rivojlantirish doirasida panel muhokamalar, o'quv seminarlar o'tkazish rejalashtirilgan. Bozorning bugungi holatini muhokama qilish, istiqbollar va tensiyalar, davlat idoralari startni qo'llab-quvvatlash borasidagi fikrlar, MSB loylilari, chakana savdo va biznesni avtomatlashtirish xizmatlari jarayonlarini taqdim etadilar.

- Koxxonamiz 2021-yilda tashkil etilgani va biz ishlab chiqaruvchi, sotuvchi yoki yetkazib beruvchilarning mahsulotlarini bir vaqtning o'zida 500 dan ortiq elektron savdo maydonchalariga chiqarib sotish uchun joylashtirish bilan shug'ullanamiz, - deydi "Furne" MCHJ operatsiyalar bo'yicha direktori va ta'sischi Aziz Yo'ldoshev. - Bundan tashqari, tovarlarni saqlash, buyurtmaga ko'ra omborlardan yig'ish, qadoqlash va O'zbekiston bo'yicha yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatamiz. Bugungi forumda O'zbekiston bozoriga qiziquvchi tojikistonlik elektron savdo bilan ishlovchi tadbirkorlar bilan hamkorlik o'rnatildi. 2023-yilning uchinchi choragidan Qozog'istonga eksport yo'nalishlarini ochib, O'zbekistondagi ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini xorij bozorlarida sotishga ko'maklashamiz. Kelajakda xizmatlarmizni Rossiya, Yevropa va arab davlatlari joriy qilish ustida muzokaralar olib boryapmiz.

Ushbu forum O'zbekiston va jahonda keng rivojlanayotgan raqamli texnologiyalarni ommalashirish, yangi texnologiyalar bilan tanishish, biznes va savdoni kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV,  
Alisher ISROILOV (surat).

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida "Vatan manzumasi" nomli adabiy-ma'rifiy kecha bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Madaniyat va turizm vazirliklari, Yozuvchilar uyushmasi, Ma'naviyat va ma'rifat markazlari hamda qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinnbosari Botir Ergashev, O'zbekiston xalq artisti Saidkomil Umarov, O'zbekiston xizmat ko'rsatgan artist Shohida Ismoilova so'zga chiqdi.

Taniqli ijodkorlarning Vatan, xalq, ona kabi mavzulardagi she'irlari o'qildi. Shuningdek, mamlakatimizdagi tinchlik, osoyista hayot, hamjihatlik va farovonlikni ifodalovchi video-lavhalari, teatrlashtirilgan badiiy kompozitsiyalar namoyish etildi.

- Bunday adabiy-ma'rifiy kechalarni o'tkazishdan asosiy maqsad yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, - dedi Botir Ergashev. - Buyuk ajoddolar va yurt ravnaqi yo'lida jasorat ko'rsatgan insonlarni yod etish, ularning avlodlarga qoldirgan merosini o'rganish va ishlarni davom ettirish o'zini shu yurt farzandiman deb bilgan har bir inson uchun ham qarz, ham farzdir. Ana shu tushunchalar adabiyot va san'at ahli tomonidan ommaga yetkazilmoqda.

Adabiy kecha yakunida Vatan himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar xotirasini yod etildi.

- O'g'lim 2000-yil avgust oyida Surxondaryo viloyati-

## "VATAN MANZUMASI".

Jasorat, matonat, vatanparvarlik madh etildi



ning Uzon va Sariosyo tumانlarda terrorchilarga qarshi janglarda qahramonlarcha halok bo'ldi, - deydi marhum harbiy xizmatchi Sayyor Sadinovning onasi Roziya Sadinova. - O'tgan yil farzandimning xotirasini abadilaشتirish masqasida o'zi tug'ilib o'sgan Girdiqlig'on mahallasida uning byusti o'natildi. Farzandimning xizmatlari hozirgacha e'tirof etilayotganidan juda xursandman. Bugun ham o'g'limning jasorati, yurt tinchligi yo'lida ko'rsatgan qahramonligi ko'p bor tilga olinib, xotirlandi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Ma'lumotlarga ko'ra, 21-24-aprel kunlari Samarqandga 242 ming 532 nafar mahalliy, 20 ming 112 nafar xorijiy sayyoj tashrif buyurdi.

## DAM OLISH KUNLARI QANCHА SAYYOJ KELDI?

Ramazon hayiti munosabati bilan berilgan dam olish kunlari Samarqand shahring Registon, Shohi Zinda, Hazrati Xizr, Imom Buxoriya va Imom Moturidiy majmualari, Amir Temur maqbarasi, "Buyuk Ipak yo'l" xalqaro turizm markazi va yana o'nlab obyektlar sayyojlar bilan gavjum bo'ldi.

- O'zbekiston deganda ko'z oldimda birinchi navbatda Samarqand gavdaladidi, - deydi fransiyalik Shantal Fabregul. - Oilam bilan yurtingizga kelganimizga 10 kundan oshdi. Bu vaqt oralig'ida Samarqand, Xiva va Buxoro shaharlarining diqqatga sazovor maskanlarida bo'ldik. Samarqand men yoqtirgan eng go'zal shaharlardan biri. Chunki ko'hna kentda buyuk allomalar merosi, tarixiy obida va muqaddas qadamjolar maftunkorligi bilan o'ziga jalb qilib turadi.

Dam olish kunlari ichki turizm

uchun bir qator chegirmalar ham joriy etildi. Shu bois mahalliy sayyojlar ham ko'pchilikni tashkil qildi.

- Dam olish kunlari oilamiz bilan Samarqand shahriga keldik, - deydi jizzaxlik Adolat Mustafoyeva. - Chegirma bilan mehmonxonaga joylashtib, Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi, Xo'ja Doniyor va Shohi Zinda majmularini ziyorat qildik. Sayohatimiz taassurotlarga boy bo'ldi.

- Samarqandga oxirgi marta besh yil oldin kelgandim, - deydi buxorulik Salim Normurodov. - Bolalarim va nabiralarim bilan tarixiy shahar yanada ko'rkamashganiga guvoh bo'ldik. Ayniqsa, yaqinda barpo etilgan turizm markazi shaharda sayyojlar oqimi ko'payib borayotganini ko'rsatmoqda.

F.FAXRIDDINOV.

## AGRAR SOHA YETAKCHI TARMOQQA AYLANADI

Viloyatimiz aholisi yiliiga o'rtacha 91 ming nafarga oshmoqda. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligi qanchalik dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda. Yer va suv resurslari cheklangan bir sharoitda aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini faqat ilmga tayangan holda yuqori hosildorlikka erishish bilan qondirish mumkin. O'tgan yilda viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 45 trillion so'mni tashkil etib, o'sish 105 foizga yetkazildi. Bu yil o'sish sur'atlari 105,2 foizga, ishlab chiqarish hajmini esa 47 trillion so'mga yetkazish rejalashtirilgan.



(Davomi 2-sahifada) >>>

# AGRAR SOHA YETAKCHI TARMOQQA AYLANADI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Buning uchun yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga alohida e'tibor qaratildi. 3,1 trillion so'mlik 678 ta loyiha amalga oshiriladi, qo'shimcha 1,2 trillion so'mlik mahsulot ishlash chiqariladi va budgetga qo'shimcha 100 milliard so'm soliq tushadi (bu o'tgan yilgi 1,9 trillion so'mlik loyihalaridan 1,6 barobarga ko'p). 17 million AQSH dollarri miqdordida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jabol etiladi. Amalga oshiriladigan loyihalar evaziga 5136 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Meva-sabzavotni qayta ishlash darajasi 23 foiz (851 ming tonna)ni tashkil etib, amalga oshiriladigan 983 milliard so'mlik 23 ta loyiha hisobiga qo'shimcha 286 ming tonna quvvatlar tashkil etiladi, jami hajm 1 million 137 ming tonnaga, qamrov 27 foizga yetkaziladi.

**Misol uchun, Urgut tumanida "Svoy dom invest VIP" MCHJ tonidanida Italiya davlati bilan hamkorlikda qiymati 5 million AQSH dollarri bo'lgan yirik loyiha amalga oshiriladi. Buning uchun 1 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jabol etiladi. Natijada 100 ta doimiy ish o'rni yaratilib, yillik 15 ming tonna quvvatga ega meva-sabzavotni qayta ishlash, qadoqlash imkoniyati yaratiladi.**

## KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIKNI TA'MINLASHVONING OQILONA YECHIMI

2022-yilda viloyatimizda 35 ming aholiga paxta va g'alla maydonlaridan qisqartirilgan 8,6 ming hektar yer ajratildi. Ushbu maydonlardan jami 780 milliard so'm daromad olinib, 1 ta dehqon xo'jalikka o'rtacha 35-40 million so'mdan to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, yerlarni o'zlashtirish hisobiga 32,2 ming hektar maydon foydalananishga kiritildi, 8,1 ming hektar maydonda bog' va tokzorlar barpo etildi. Jumladan, Payariqa 553 hektar, Kattaqo'rg'onda 1200 hektar, Nurobodda 3165 hektar va Past Darg'om tumanida 926 hektarni tashkil etdi.

Bu shababus joriy yilda ham davom ettirilib, yana 23 ming aholiga 7,6 ming hektar yer ajratib beriladi va 61 ming nafar fuqaro doimiy ish va daromad manbaiga ega bo'ladi.

Aholi tonomqalaridan samarali foydalananish va 2-3 marta hosil olishni tashkil etish maqsadida suv ta'minoti o'g'ir 85 ta mahallada 115 ta artezian quduqlar qaziladi. 3,5 ming xonadonda 400 hektar tonmorqa yer maydonlari suv bilan ta'minlanadi va 7 ming aholi tonmorqada o'zini o'zi band qiladi. **574 ta konturda 6,4 ming hektar yer maydoni o'zlashtirilib, 23 mingta ish o'rni yaratiladi.**

## SUV TEJOVCHI TEKNOLOGIYALAR DEHQONCHILIKNING KELAJAGINI BELGILAYDI

Viloyatimiz suv ta'minoti anchha o'g'ir bo'lgan hududlardan hisoblanadi. Shu bois keyingi uch yilda Zarafshon daryosidagi suv hajmining tabiiy kamayishi 1,2 milliard metr kub (30 foiz)ni tashkil qildi. Bunday sharoitda suv tejamkor texnologiyalarni qo'llagan holda mahsulot yetishtirishga o'tish eng maqbul yechim hisoblanadi.

Viloyatda bugungacha 105 ming hektar maydonda, jumladan, 2022-yilda 26,8 ming hektarda (11,1 ming hektar tomchilik, 520 hektar yomg'irlatib, 15,2 ming hektar lazerli tekislash) suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi. 2023-yilda 40,9 ming hektarda (21,1 ming hektar tomchilik, 2,2 ming hektar yomg'irlatib, 1 ming hektar diskret sug'orish va 16,7 ming hektar lazerli tekislash) joriy qilinadi.

Suv tanqisligining salbiy oqibatlarini yumshatish va masalaga yechim topish maqsadida davlat xususiy sherkilik (DXSH) shartlari asosida 12 ta nasos stansiyasi, 53 kilometr uzunlikdagi 4 ta kanal, 265 kilometr kollektor va 62 dona sug'orish quduqlari tadbirkorlarga foydalananishga berildi. Natijada 114 million metr kub suv, 7,5 million kVt/soat elektr energiya va 12,8 milliard so'm budget mablag'i tejaldi. Ushbu tadbirlarini davom ettirib, Ishtixon tumanida 63 kilometr kanal, 4 ta nasos stansiyasi, 277 kilometr kollektor va 36 ta sug'orish quduq'ini "Maroqand sifat teksti" MCHJ ga DXSH asosida berish bo'yicha hujatlar taqqid qilindi. Bu kabi ishlar Jomboy va Oqdaryo tumanlarida ham boshlangan, boshqa tumanlarda davom ettiriladi.

Irrigatsiya-melioreatsiya dasturi doirasida qiymati 67,4 milliard so'm bo'lgan 11 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada 49 ming hektar maydonda suv ta'minoti yaxshilanadi, 1,3 ming hektar maydona ning meliorativ holati tiklanadi.

Davlatimiz rahbarining tashhabusi bilan "Bulung'ur suv ombori" barpo qilinishi natijasida 36 ming hektar yer maydonida suv ta'minoti yaxshilanadi. Bulung'ur, Jomboy, Payariq tumanlarining suv ta'minoti o'g'ri hududlarida 2-3 martagacha hosil olishga erishiladi.

Shuningdek, 2022-yilda mahalliy budget ichki imkoniyatlari hisobidan 1,5 milliard so'm (118 ming yevro) mablag' ajratilib, Payariq tumanida "O'zbekiston" nasos stansiyasida Daniyaning "Grundfos Pompa San. VeTic.Ltd Sti" kompaniyasida ishlash chiqarilgan samaradorligi yugori va energiya tejamkor 3 dona nasos agregatini o'natalidi. Bu bilan bir yilda 20 foizga yoki 200 ming kVt/soat elektr energiya tejalishiga erishildi. Joriy yilda yana 15 ta nasos stansiyasida shu kabi elektr energiyasi tejalishidan iqtisod qilinadigan 16 milliard so'm mablag' hisobiga nasos

uskululari yangilanadi.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar tomonidan 251 ta (quvvati 6-40 kVt/soat) quyosh panellari o'natalidi. Natijada 2 million kVt/soat elektr energiyasi iqtisod qilindi. Yil yanukinacha yana 550 ta quyosh paneli o'natalish rejalashtiriladi.

## KARTOSHKACHILIK AGRAR TARMOQNING ASOSI DRAYVERI

**Kartoshkachilik viloyatda qishloq xo'jaligi sohasining asosiy drayveridan biri.** Respublikada yetishtiriladigan kartoshkaning 30-35 foizi viloyatning hissasiga to'g'ri kelishi ham so'zimizni isbotlaydi. Ammo kartoshkachilikda eng asosiy muammolardan bire sifatlari urug' yetishmasligi bilan bog'liq. Raqamlarga qaraydigan bo'sak, viloyatning bir yillik kartoshka urug'ligiga bo'lgan talabi 140-145 ming tonnani tashkil etadi. Buning uchun har yili o'rtacha 8-10 ming tonna kartoshka urug'ligi import qilinadi.

**Bunga yechim topish maqsadida** Oqdaryo tumanida "GS-BIO SAMARKAND" qo'shma korxonasi tashkil qilinib, In-vitro sharoitida issiqxonada virus va kasalliklardan xoli bo'lgan urug'lik kartoshka yetishtirish yo'ga qoldi.

Bu sohada ishlarmizni davom ettirib, Samarqand tumanida "BGS PLUVUS" MCHJ, 4,5 ming tonna quvvatiga ega, Nuroboda "Sarikul Mega Agro" MCHJ tashkil qilindi. Buning uchun Nurobod tumanidan 1450 hektar yer maydoni ajratib berildi. Loyiha doirasida quvvati 21 ming tonna kartoshqa, 25 ming tonna boshqa turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi.

## BOG'DORCHILIK DAROMADI YO'NALISH

**Viloyatimizda keyingi to'rt yilda 27,3 ming hektar tokzor va 15,3 ming hektar bog'lar barpo qilindi.** Jumladan, o'tgan yil 3,2 ming hektar bog' va 4,7 ming hektar tokzor tashkil etildi.

**Birgina Qo'shrabot tumanida keyingi to'rt yilda 7,5 ming hektar tokzor barpo qilindi.** Joriy yilda tumanda hosisiga kirgan tokzorlar maydoni 10,1 ming hektarga yetadi. Ushbu maydonlardan o'rtacha 167,8 ming tonna uzum olinadi va 15 mingga yaqin ish o'rni yaratilib, 30 million dollarlik mahsulot eksport qilinadi va 850 milliard so'm daromad olinadi.

Bugungi kunda viloyatdagi 28 ming hektar bog'ning 21 ming hektari, ya'ni 75 foizi intensivlashgan, bosqichma-bosqich qolgan an'anaviy bog'lar ham intensivlashtirilmoqda. Sohaga ilm va innovatsiyalar qo'llanigan holda viloyatda 2 ta in-vitro laboratoriysi tashkil etilib, u yerda jami 19 million dona ko'chat (6,2 million dona mevali, 13,3 million dona tok) yetishtirilmoqda.

Hisob-kitoblarimizga ko'ra, fermer xo'jaliklarning dala chetlariga 3,5 ming pogona kilometraga 1,2 million dona mevali ko'chat ekib, qo'shimcha daromad manbai yaratish mumkin.

Birgina Jomboy tumanidagi fermer xo'jaliklarning dala chetlarida 320 pogona kilometr bo'sh yerlar aniqlanib, u yerga olcha ko'chatni hisob-kitob qilindi. Buning uchun "Ohalik Oltin bog'lar" MCHJ in-vitro laboratoriyasida tayorlangan ko'chatlar fermerlerga yetkazib berilmoqda. Bog'dorchilik agentligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan 3,2 milliard so'mlik loyiha doirasida keyinchalik yetishtirilgan hosisini korxonaning o'zi solib, qayta ishlaydi. Joriy yilda esa bu loyiha Bulung'ur, Ishtixon, Qo'shrabot va Oqdaryo tumanlarida ham joriy etiladi.

## ZAMONAVIY TEXNIKA DEHQONCHILIKNING ASOSI

Hozirda viloyatimizda qishloq xo'jaligi korxonalar tasarrufida zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalari soni 2295 donan tashkil etadi. Joriy yilda yana 625 dona yangi texnika xarid qilindil. Klaster tizimi joriy qilinishi qishloq xo'jaligini zamonaviy texnikalari bilan ta'minlashtiradi.

2022-yilda birgina "KATTAKURGAN CLUSTER" MCHJ tonidanida jami 50 milliard so'mlik 150 dona yangi qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olingan bo'lsa, "AMINA GOLD INVEST" MCHJ tonidanida 23 milliard so'mlik 183 dona yangi qishloq xo'jaligi texnikasi xarid qilindi. Albatta, zamonaviy texnika ish umumi va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va unumdonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Joriy yilda yana 670 dona texnika, ya'ni 100 ta don o'rish kombayni, 50 ta paxta terish mashinasi va 150 dona zamonaviy chigit ekish seyalkalarini xarid qilish rejasidir.

Bundan tashqari, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022-yilda qiymati 787,8 milliard so'm bo'lgan 173 ta loyiha ishlash tushirildi.

Misol uchun, Qo'shrabot tumanida "Qo'shrabot lomand parranda" fermer xo'jaligida qiymati 75 milliard so'mlik 800 ming bosch tuxum yo'nalishidagi tovuq hamda 45 ta inkubatasi sexida yillik 12 million bosch nashli jo'ja yetishtirish yo'nalishidagi yirik parrandachilik kompleksi tashkil etildi. Joriy yilda bu yo'nalishda qiymati 885,4 milliard so'm bo'lgan 471 ta loyiha amalga oshiriladi.

**Shunqor XUDOYBERDIYEV, viloyat hokimining o'rinnbosari.**

## Millatning mudrab yotgan dahosini uyg'otish kerak

2023-yil 27-aprel, payshanba

O'zbekistonning milliy g'oyasi qanday bo'lishi kerak? Uning negizida sifatiga ta'lim, samarali ilm, milliy manfaatlar mujassam bo'lishi shart! Bugun biz niyoyatda murakkab, tahligli, tahlidli va tajovuzkor dunyoda yashayapmiz. Jahonda yuz berayotgan voqe'a-hodisalar, beqaror siyosat, gegemonlik vasvasasi, o'zaro ziddiyatlari, millatchilik kabi bo'hronlar bizdan har qachongidan-da ko'proq milliy mustahkamli ni talab etmoqda. Milliy birlik yuksak milliy g'oya zamirida shakllanadi, millatni yagona maqsad yo'lida birlashishga da'vat etadi.

## MILLIY G'OYA MILLAT UCHUN HAYOT-MAMOT MASALASI



O'zbekistonning milliy g'oyasi qanday bo'lishi kerak? Mazkur savolni hozirgi talo'pi davorda hayotning o'zi oldimizga ko'ndalang qo'ymoqda. Zero, milliy g'oya barcha maqsad-muddaclarimizning kalit hisoblanadi.

G'oyasizlik yoki ikkinchi darajali g'oya millatni zaif qiladi, turg'unlikka yetaklaydi. Agar teran mulohaza yuritsak, tevarak-atrofqa nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyoning rivojlanchagan mamlakatlari hayotidagi barcha buyuk tarixiy hodisalar tag-zaminida to'g'ri tanlangan va o'zgarmas milliy g'oya mujassam ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Shu ma'noda, O'zbekistonning milliy g'oyasini ilgari surish payti keldi. Bizningcha, u sifatli ta'lim va samarali ilm-fan negizida yugor intellegunktal darajali avlodni tarbiyalashdan iborat bo'lishi maqsadiga muvofigidir. Chunki yuqori intellegunktal darajali avlodning paydo bo'lishi, jamiyatning barcha bo'g'iniqiga kirib borish, mamlakatdagi mavjud sohalarning ijobiy o'zgarishiga, yangilanishiga, rivojlanishiga, taraqqiy etishiga olib keladi.

Bu ma'noda, O'zbekistonning milliy g'oyasini ilgari surish payti keldi. Bizningcha, u sifatli ta'lim berish, millatning mudrab yotgan dahosini uyg'otish bilan. Demak, yosh avlodning aqil «mas'h'al'a»larini bugun yog'omiz imzilozim. U jamiyatda insonning butun umr ilm olishi uchun barcha sharhoitni yaratib berish, ma'rifikat davlat siyosatini yuritish, bala ongu shuuriga go'dakligidanoq zojo lib kirish yordamida amalga oshiriladi.

To'g'ri, bu juda mashqatqil, og'ir mehnat talab qiladi. Ammo sharafli yo'il, taraqqiyot shart, zamon talabidir.

2018-yilda Samarcand davlat universitetiga tashrif bursayurigiga Nobel mukofotini laureati Aziz Sanjariga ta'limdagi islohotlarni nimadan boshlash kerakligi to'g'risida savol berganimizda, uning javobi juda qisqa bo'ldi: «Maktabgacha ta'lim muassasasidan...»

Mashhur olmirmay fikrini davom ettirib, aytmochqimanki, onalar mas'uliyatini oshirish ham juda muhim. Onaning farzandni dunyoga keltirish u tabibi jarayon bo'lsa, oildan boshlab unga ta'lim-tarbiya berish uylar oldi. Yolning qurashini yuritish uchun qaralib qolay qurashadi.

«Hamma sa'y-harakatlarni tagida ta'lim bor. Qaysi hujdug'e borsam, yoshlar bilan, katta-katta korxonalaridagi ishlashlar bilan suhbatlashaman. Ulardan «Sizni nima qiyaynadi?» deb so'rasam, bilim yetishmasligini aytadi. Rivojlanang davlatlar bugungi iqtisodiyotiga qanday erishgan? Bilim evaziga! Shuning uchun avvalboshdan ta'limni yaxshilashga harakat qilayip. 2023-yilga «In-songa e'tibor va sifatli ta'lim yili», deb nom beridik. Endi maktablarimizga mutlaqo yangi muhit va sifat kirib kelishi kerak», — degan edi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistoni barpo etish, Uchinchi Renessansni bonyod qilish, erkin va farovon jamiyat qurish yo'lida belgilab olgan ulkan maqsadlarga qanchalik tez erishishimiz millatning bilim va tafakkuri, salohiyatiga bog'liq. Singapur mo'jisinasining asoschisi Li Kuan Yu aytganidek, «ste'doddil onsonlar mamlakatning eng bebabu boyligidir».

Masalaga ana shu nuqtasi nazardon yondashak, O'zbekiston mustaqil bo'lganidan so'ngi «milliy g'oya» deb nomlangan g'oya o'taga tashlangan edi. Ammo mavhumiлик yo'rilgan bu g'oya xalqimizga singmadi, millatning milliy g'oyasiga aylanmadni. Eng alamli, hayotimizni yaxshilamadi, o'zgartirardi. Chunki bizga «milliy g'oya» deb tisqishtirilgan g'oyaning aniq maqsadi yo'q edi. Balandparvoz gaplaridan iborat edi, xolos. U bilan hayot o'rtaida juda katta farq bor edi.

Xalqimiz yo'isizlik uzra muallaq qolgach, Prezident Shakhat Mirziyoyev milliy g'oya borasida amalga ishlashlari boshladi. Uning asl ma'noma-nazmi qiyidigalaridan iborat: Biz ma'rifikatpar bo'bobalarimizning muqaddas orzularini ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poymevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganimiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyot shaharida bosh islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu borada avvalo, ta'lim tizimini zamon talablarini asosida tashkil etish, o'qituvchi va murababilarining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ta'sirini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz...

MASOFAVIY XIZMATLAR

Chet el kapitali ishtirokida "INVEST FINANSE BANK" aksiyadorlik tijorat banki Samarqand filiali bugun kredit tashkilotlari hamda bank xizmatlari bozorida o'zing salmoqli o'rniiga ega xususiy tijorat banklar sirasiga kiradi.

Bunga misol qilib keyingi yillarda bankimiz rahbariyati va boshqarvi tomonidan eng so'nggi zamoniaviy, innovatsion axborot texnologiyalariga asoslangan bank xizmatlari joriy etilayotganligini keltirishimiz mumkin.

2023-yilning mart-aprel oyalarida yuridik mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatishining oldingi "Bank-mijoz" mobil ilovasining o'rniiga zamoniaviy, yanada takomillashtirilgan, xizmat ko'rsatish qamrovi ancha kengaygan, asosiyisi, turli xakkerlik kiber hujumlardan mutlaqo himoyalangan "INFIN BUSINESS" mobil ilovasi o'rnatalib, mijozlarning mobil ilovalari yangilmoqda va bu mijozlarimiz tomonidan mammuniyat bilan qabul qilinmoqda. "INFIN BUSINESS" mobil ilovasini mijozlarning kompyuter qurilmalari bilan birga ularning shaxsий mobil qo'l telefonlariga o'rnashim imkoniyati mavjud. Shu sabab masofaviy xizmat turlaridan foydalanuvchilar soni kun sayin oshib, bugungi kunda 1500 nafarga yetdi.

TO'LOV KARTALARI VA BANKOMATLAR

2022-yil mobaynida 9482 ta (HUMO, UZCARD, VISA) to'lov kartalari ochilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021-yilda 4655 tani tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, ochilgan kartalar soni ikki barobar oshib, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Ushbu ko'rsatkich joriy yilning to'rt oyi mobaynida 3001 tani tashkil etmoqda. Jumladan, bugungi kunda juda ommabop, xalqaro mavqega ega VISA to'lov kartlari 2021-yilda 774 ta joriy qilingan bo'lsa, 2022-yilda bank tomonidan chiqarilib, mijozlarga 2062 ta ushbu turdag'i to'lov kartalari yetkazib berilgan. 2023-yilning to'rt oyi mobaynida mijozlarga 983 ta VISA to'lov kartalari yetkazib berilganligidan esa ularning salmog'i oshib borayotganini kuzatish mumkin.

2023-yilda aholining naqd pulga bo'lgan ehtiyojarini qondirish maqsadida bankomatlar soni 22 taga yetkazildi (jumladan, 10 ta

# Infin BANK DAVRGA MOS, XALQ TALABIGA HAMOHANG

HUMO, 12 ta UZCARD). 2021-yilda ular soni 20 tani tashkil etgan.

Joriy yil bank tomonidan ushbu yo'nalishda bankomatlar sonini 30 taga yetkazib, sezilarli o'sishga erishish rejalashtirilgan.

Bankomatlar orqali 2023-yilning yanvar oyida 29,2 milliard so'm miqdorda pul aylanmasi amalga oshirilib, yaxshi natijalarga erishildi. Bu ko'rsatkich 2022-yilning yanvar oyida 27,2 milliard so'mni tashkil etgan.

CHEKI ATB "INVEST FINANSE BANK"

Samarqand filiali tomonidan joylashtirilgan bankomatlarning doimiy naqd pul mablag'lari bilan ta'minlanishi va uzluksi ishlashi kunlik nazoratga olingan.

**YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARINI  
KREDITLASH AMALIYOTLARI**

2022-yilda 1568 ta jismoniy shaxslarga jami 106,5 milliard so'm miqdorida avtokredit, mikrokredit, overdraft va ipoteka kreditlari ajratilgan. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 635 ta, miqdori esa 30,8 milliard so'mni tashkil etganligidan bu yo'nalishdagi kreditlar ajratilishi uch barobarga oshganligini ko'rismiz mumkin.

Ayniqsa, aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida 2023-yilning to'rt oyi mobaynida 30 ta mijozga 11,8 milliard so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi. 2022-yilda bank tomonidan 50 ta mijozga 13,4 milliard so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilgan.



Bugungi kunda eng dolzarb, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldag'i "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-sonli qaroriga muvofiq bank filialida jismoniy shaxslarga quyosh panellari va energiya tejovchi zamoniaviy texnologiyalarni joriy etish va o'rnashim maqsadida yangi "INFIN GREEN"

## "SAMARQAND DILLER RIELTOR SERVICE"

**mas'uliyati cheklangan jamiyati boshlang'ich bahosi bosqichma-bosqich oshib borish tartibida  
o'tkaziladigan ochiq auktion savdolariga taklif etadi!**

Savdoga, "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvni markazi" ishtirokchilarining 2023-yil 14-apreldagi 1/1-sonli yig'ilish bayoni hamda markazning 9-sonli buyrug'i va 14/04-sonli murojaat xatiga asosan "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvni markazi"ga qarashli, Samarqand shahri "M.S.Baraka" MFY, Telefon ko'chasiida joylashgan qurilish osti maydoni 284,86 kv.metr, foydali (ichki) maydoni 211,39 kv.metr bo'lgan notarjaroy binosi qo'yilmoqda. **Boshlang'ich bahosi – 102 064 000 so'm.**

**Savdo 2023-yil 29-may kuni soat 10:00 da o'tkaziladi.**

Talabgorlardan buyurtmanomalar rasmiy ish kunlari soat 10:00 dan 16:00 gacha qabul qilinadi (13:00 dan 14:00 gacha tushlik). Buyurtmanomalar qabul qilishning oxirgi muddati 2023-yil 26-may kuni soat 18:00.

Yuqorida ko'rsatilgan mulk 2023-yil 29-maydag'i savdoda sotilmagan taqdirda, uning takrori auktion savdolari 2023-yil 12-va 26-iyun kunlari soat 10:00 da bo'lib o'tishi oldindan ma'lum qilinadi.

**DA'VOLAR BO'LSA...**

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov O'limas To'rayevich notarial idorasida marhum Umarov Djurakulga (2020-yil 10-yarvanda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'limas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegin ko'chasi, 26-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Sheralliyev Allayorga (2020-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Isakov Aziz Baxtiyorovichga (2022-yil 5-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy, 21-xona.

\*\*\*

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Normaxamadga (2020-yil 27-avgustda

vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*\*\*

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Boburov Nurali G'aybulayevichga (2023-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Faduev Dmitriev Petrovichga (2014-yil 19-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Abduraxmonova Gulandom Fateyevnaga (2023-yil 1-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

\*\*\*

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Abdullayev Normaxamadga (2020-yil 27-avgustda

vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

\*\*\*

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Abdullayev Normaxamadga (2020-yil 27-avgustda

vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Normatov Murod To'yevich notarial idorasida marhum Azimov Umid Xakimovichga (2023-yil 15-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Normatov Murod To'yevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarqand tumani Andijoni ma-hallasi.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Yuzbayev Kirijig' Kuchkarovichga (2019-yil 27-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelek shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.

\*\*\*

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Javkanov Baxtiyorga (2015-yil 28-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Payariq tumani Chelek shaharchasi, Obod ko'chasi, 35-uy, 3-xona.

\*\*\*

**BEKOR QILINADI**  
Samarqand shahridagi "Parvina-bank" xususiy yopiq aksiyadorlik-tijorat bankining (STIR: 200776366) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

## Xotira

Odamlar bor dunyoga kelib, sokin hayot kechirishi va dunyon shu tarzda tark etishadi. Etimol, insonga atalgan barcha ne'matlardan ham bu dunyonning turli azob-uqbubatlariga ham duch kelishar. Ammo 1949-yilning 29-apreli Narpay tumanidagi Qoziyoqli mahallasida tavallud topgan Qarshiboy Ibodov esa boshqalarga o'xshab sokingina yashamagan va yashay olmasdi ham. Chunki u yoshligidan g'ayratli, shioatkor edi.



## Yaxshi insonning ortidan shirin so'z va ibratli amali qoladi

U 1966-yilda tumandagi 54-maktabni bitirib, Samarqand qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash texnikumida saboq oldi. Ammo ixtisosilikka ega bo'lgach, o'z sohasi bo'yicha ko'p ishlamadi. Serg'ayrat yigitning e'tiborga tushmaydigan tashkilotdagi harakatlari baribir rahbarlar nazaridan chetda qolmadidi. Uni tuman don mahsulotlari qabul qilish manziliga mudir etib tayinlashdi. Q.Ibodov bu vazifada 10 yil ishlab, ko'pgina ijobiy ishlarga qo'llardi. Tadbirkor rahbar qo'lda bajariladigan ishlarga deyarli barham berdi, asosiy yushmanlar texnika gandaniga yuklandi.

1989-yilda xuddi o'sha manzil negizida Oqtosh don mahsulotlari qayta ishlash kombinati tashkil etildi ya yangi kombinatiga shu sohada anche tajriba to'plagan Qarshiboy Ibodov tayinlandi. Ma'lumki, yangi korxonaya yangi tashkil etilani o'slasi estadi, goh u, goh bu narsa yetishmaydi. Rahbaridan esa bu kam-ko'stni to'ldirish, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish o'ta mas'uliyat bilan ishlashni tabii etidi. Q.Ibodov barcha qiyinchiligi ahil jamoaning mutaxassisleri bilan birga yengib o'tdi. U salkam 900 kishilik jamoani boshqarishda tadbirkorlik bilan ishlashni yuritib, yuk-sak tashkilotchilari faziyatlarini namoyon etdi.

Natijada kombinatda ishlab chiqarish umordorligi yil sayin oshib bordi, mahsulot sifatiga alohida e'tibor berildi. Jamoa yutug'i respublika miyosisida tilga olinadigan bo'ldi. Qarshiboy aka kombinatda 15 yilдан ko'proq samarali mehnat qildi, el-yurt orasida obro' topdi. Albatta, yirik korxonada hammaning diqqat-e'tiborida bo'lgan bunday ishlab chiqarish majmuasida shuncha muddat birinchi rahbar bo'lib ishlash har kimga ham nasib etavermaydi. Qolaversa, qancha to'g'ri ishlaganligan bilan korxonaya ichidan bo'lmasa-da, bиринчи rahbarga chetdan tosh otchilar topiladi.

Kombinatdagi mehnat faoliyatidan keyin kredit mahsuloti joriy qilindi. Uning shartlariga ko'ra, jismoniy shaxslar 5 yil muddatga paisaytilgan foiz stavkalarda kredit mablag'lari olish imkoniyatiga ega. Xuddi shunday, bankning yuridik mijozlari uchun ushbu turdag'i "INFIN GREEN" kredit mahsulotidan foydalishim imkoniyatiga yaratigan. Joriy yilda CHEKI ATB "INVEST FINANSE BANK" Samarqand filiali binosida ham quyosh paneli energiya tejovchi qurilmalar o'rnatilib, bugungi kunda o'z samarasini bermoqda.

Bankning yuridik mijozlari yanada quay bank xizmatlari ko'rsatishining oldingi shaxslariga qayta ko'rib chiqilib, aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida ajratiladigan kreditlar muddati 18 oydan 36 oyga uzaytirildi. Bundan t

# Zarafshon

## Alisher Navoiy

### "POKRAV NISO TA'RIFIDA..."



Vatanimizning uzoq tarixidan bu kunga qadar dunyo fani va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan donishmand allomalar o'tishgani, ularning soni va salohiyati darajasini boshqa bir xalq tarixi misolda ko'rish mushkul bo'lsa kerak. Ular orasidagi yorqin tarixiy shaxslardan biri Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bo'lib, Hazrat inson xilqatining yaratilishidanoq mukarram qilinganligi haqida "Hayrat ul-abr" dostonida shunday yozadi:

*"Karmanno" keldi manoqib anga,*

*"Ahsani taqvim" manosib anga.*

Ulug' shoir Qur'onini karim oyatlaridan iqtibos olib, insonning qanday ne'matlari evaziga mukarram qilinganligi va barcha maxluqotdan ko'ra go'zalroq surat - shamoyida yaratilganligi haqida fikr yuritadi. U insonga "ne'mati olyisifot", ya'n'i ma'rifat berilganligi uning "mukarram"ligning asosi, deb biladi:

*Ma'rifating kim qila olmay sifot,*

*Gilding ani orifi ul ma'rifat.*

*Ilmiq'a har zotni xayl aylading,*

*Zotiq'a olamni tutfayl aylading.*

Hud taolo o'z ma'rifatini sifatlarini orqali zuhur etmog'ini istadi va uni o'zida jilvalantiruvchi mazhar etib, Orif insonni tanladi. Kimki Orif inson ilmiga tolib etgan bo'lsa, har bir ilm tolibi uchun olamlarni xalq qilganganli, yaratganligini "mukarram"ligning asosi, deb biladi:

*Bu satrlarni mutoala qilgan o'quvchida "Orif inson kim?", degan tabibi savol tug'iladi. Bu haqda ham hazrat Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ma'lumot beradi. Insonlar orasidagi orif zotlar vasfi bitilgan bu asarda islam dini targ'ib etgan barcha oly insoniy sifatlar - poklik, sadoqat, saxovat, hilm, shafqat, muovanat (odamlarning bir-birligiga yordam bermakliklari) bashoshat (ochiq*

yuzililik), tavozu (kichik ko'ngillik, manmanlikdan yiroqlik), sobirlik, vatamparvarlik, mustahkam imon, e'tiqod egasi bo'lmoglik kabi sifatlar vafsi etiladi. Chunonchi, mazkur asarda axloq-odob bobida eng oly maqomlarga erishgan oriflar hayotidan ibratli hikoyalari keltiriladi.

Hazrat ta'kidlaganlaridek, bu toifa ahli (ya'n'i, oriflar) shariat yuzidan tariqat odobibni mahkam tutadilar. U qanday odob ekan? Hazrat Navoiy yozadi: "Ul adabdurki, yaxshi va yamonga va ulug' va kichikka baho keltirurlar. Andoqliki, barcha xaloyiqdan o'zlarin kichik va kamroq tutarlar va barchaq'a xizmat huzurida bo'urlar. Hattoki, o'z farzandlarig'a va xodim va mamulkariq'aki, har necha alardin beqoidalig' ko'rsalar, xushunat bila alarga so'z demaslar, balki nasihatni yumsiq va chuchuk til bila qilurlar, hattoki, o'g'rig'acha".

Bir oddiy insonning hayotda muvaffaqiyatga erishib, eng oly ne'mat - ma'rifat lazazidan bahramand bo'lishi uchun faqatgina uning o'zining maqsadi, intifishlari, sidqu ixlosi kifoya qilmas ekan. Xirsdan muloyimlik, hukdan poklik, o'rmalovchidan sadoqat kutilmaganidek, tabiatli dunyoga kelishi-danoq nuqusini shakllangan shaxsdan muvaffaqiyat kutish ham mushkul.

Insonning dunyo yuzini ko'rishi esa chinqirish yorug' olamga qadam qo'yishidan awvalroq boshlanadi. Inson dunyo yuzini o'z onasi yuragi ostida turib, onasining ko'zlarini, quloqlari, qalbi orqali ko'ra boshlaydi. Ana shu nisbatan qisqa umri davomida inson allaqachon shakllanib ulguradi: yo bulbul - yo zog', yo gul - yo tikan, yo bog' - yo tog'! Tasavvurni kengroq qilsak, dunyo yaroti, davlatlar taqdiri,

jamiyatlar ahvoli biringa insonni dunyoga keltiruvchi ayol tabiatiga bog'iq bo'lib qolmoqda. Ayol - ona zimmasidagi burch va mas'uliyatning qay darajada katta va muhim ekanligini qayd etmaslikning imkoniy yo'q. Bu burch va mas'uliyatni onalik martabasiga ko'tarilgan har bir ayol chiquvi his esatiga, uning oiliasi hayoti, egasi - tur mush o'rtog'i bo'lmish erkak yaroti, jamiyatni, tur mush tarzi, davlati taqdirli tinchlik va barakot bilan kafolatlangan bo'ladi. Demak, surriyot dunyoga keltiruvchi ayol "tinchlik va barakot kafolati" ga sabab bo'ladi-gan shaxs ekan.

Muqaddas islamiy manbalarda, mujahid olmlar asaslarida soliha ayolning burchi va mas'uliyati haqida ko'p xabarlar keltirilgan.

Shunday burchlardan binchinchis jamiyat tur mushida poklikni arash va uni haromdan ehtiyyot qilish maqsadida ayol zimmasiga yuklanadi. Ayol odob va hayo chegarasidan tashqari ochiq yurishi, Yaratguchining unga bergen omonat ne'mati - go'zal suratini namoyish qilishi natijasida jamiyatda fitna bosh ko'tarishi mumkin.

Ayl zimmasiga yuklangan mas'uliyatdan yana bira harom luqmadan saqlanishdir.

Insonning barkamol surat va siyrat kasb etishida uning faqat halol va pokiza luqma yeb voyaga yetishi katta ahamiyatga ega. Bu mas'uliyat birinchisi navbatda valine'mat otaning, so'ng onanining zimmasiga yuklangan. Maqsad hosil bo'lishi uchun ikki tomon birdek harakat qilmog'i lozim. Ammo bu burchning mas'uliyati ham ayol zimmasida ko'proq. Ayol Yaratganga duo-iltijo

yaratib bermog'i lozim.

Ayolga e'tiborning muhimligi haqida bir tatar gene-rali Hoji Zaynulobiddin Tag'iev shunday degan: "Bir o'g'il bolani o'qitib, bir ilmlil insonga ega bo'lasiz, bir qiz bolaga ta'l'im berib esa, ma'rifatli bir oliga ega bo'lasiz!". Ma'rifatli oilalardan tashkil topgan jamiyat esa fozi jamiyat bo'lishi kunday ravshan.

Soliha ayol burchi va mas'uliyatini har doim his etib turishidan tashqari, fazilatli ham bo'lsa, ba'zi xulqi nojisi erkak-lardan ko'ra ustun maqomda bo'ladi. Fazilat bobida Hazrat sevimi, payg'ambarimiz Rasul Akram (s.a.v.) oilalaridagi ayollar, xususan, ul zoti bobarakotning sevimi qizlari Fotima onamiz (a.) barcha soliha ayollar uchun ibrat timsolidir. Ahdga vafo, oilaga sadoqat, jufti haloliga muhabbat, far-zandlariga mehru shafqat, go'zal xulq, barkamol adab kabi fazilatlar hazaroti Fotima onamiz (a.), dan ibrat bo'zgusi sifatida bizgacha yetib kelgan. Buni ulug' mutafakkir Alisher Navoiy "Pokrav niso ta'rifidakim..." deb boshlanuvchi qit'asida shunday bayon edati:

*Yuz turman nopok erdin yaxshiroq*

*Pokrav niso ta'rifidakim...*

*Lut o'g'lin ko'rkni, soldi tiyralik*

*Ding'a nafs ilgida tab'i ojizi.*

*Dahr aro yoqtı sayodat mash'alın,*

*Pokravlıqtın Rasululloh qızı.*

Navoiy payg'ambar Lut (a.) o'g'li o'z nafsi mag'lub bo'lib, otasi targ'ib etgan haq dinga qorong'ulik, soya tash-lagan bo'lsa, Rasululloh (s.a.v.) qizlari Fotima (a.) fitratan

**“Zarafshon” gazetasi 110 yoshda**



**Ushbu surat 1999-yilda  
olingan. Unda «Zarafshon»  
gazetasining zabardast jurna-listlari  
aks ettirilgan.**

**Jumladan, tepa qator, chapdan - Hakim Jo'rayev, Shokir Ergashev, Ziyodulla Jonibekov, Dilmurod To'xtayev, Ubaydulla Siroev.**

**Pastki qator, chapdan - Abdvali Ochilov, Mannob Ibodullayev, Adham Hayitov, Mamadiyor Ziyodinov, Abdurasul Sattarov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Sulaymon Husainov.**

pok farzandlar dunyoga tuhfa etib, sayyidlar - baxtli insonlar to'dasining mash'alini yoqib berdi, deya ta'kidlamoqda.

Hazrat Navoiy ayolning halollik va fazilatlar sohibasi ekanligi uning pokiza fitratli insonni jamiyatga taqqid etishiga sabab bo'lishi, poklikni inson onasi vujudidan va tarbiyasidan olmas ekan, hayoti davomida bu xislatlarni kasb etishi nihoyatda qiyin bo'lishini ta'kidlab oholniranadi:

*Yuzig'a asli yamonning ko'p ochma gulshani xulq, Siyah gilemga albatta, mehr aylama fosh.*

*Ki qilmadi gul isi birla toza ruh jual,*

*Quyosh charog'ig'a parvona bo'lmadi xuffosh.*

Yomon nom chiqqargan insonga hadeb go'zal muomala qilavermaki, tushunmaydi. Asli qora qilanga quyosh aksini solaman, deb o'zingin qiyinama. Go'ng qo'ng'izni gulzor-ga kiritib qo'yaning bilan u asli kasbini - go'ng yig'ishini qo'yishmaydi. Uning go'ng yig'ishga o'rgangan dimog'i gul hidini sezmaydi, tabiatli po'qonmaydi. Kapalak quyosh ziyoisini istab, o'zini shampa urib, kuyli ketadi-yu, ko'rshapalak na nurni, na ziyoni tushunadi.

Ammo, fitratli inson hayoti davomida ne tashvishlar, ko'rguluklarni ko'rmasin, ne fitnalar, balolarga nishon bo'limsin, bundan tashvishiga tushmaydi, uning asli tabiatli aynimaydi. Chunki fitrat unga Haqdan hadya etilgan hidoyatdir. U dunyoga boshida hidoyat toji bilan kelgan! Hideyot tojini esa Haq taolo o'z'i tanlagan sadaf ichidagi gavhargha munosib ko'rishi tasavvur qilinadi. Gavhar - fitratli tojdar inson bo'lsa, sadaf - uni pok vujudida asragan va tarbiyalagan soliha ayoldir:

*Ne raveraki, toji hidoyat boshidadur,*

*Yo'q bok anga havodisi aflok toshidin.*

*Hudhudki, yo'q dilar azalay toji boshida,*

*Tushg'aymu jola yoqqan sori boshidin!?*

Hudhud - boshida toji bilan tug'iladigan qush. Osmon dan yomg'ir, jala yoqqani bilan uning boshidan toji tushib qoladimi?! Fitrat, ma'naviy ustunligi aynib qoladimi?! Hazrat Alisher Navoiy shu tariqa insoniyatni ogohlantiradi. Uning burchi, mas'uliyati, vazifalarini estatadi.

Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida o'ttiza avlyo ayollar haqida ma'lumot beriladi. Bu bilan hazrat Navoiy piri komillari Maxdumi Nur'an - Nuriddin Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns" nomli tazkiralarida keltirilgan ma'lumotlarga nisbatan ham ayollarning bu hayotdag'i o'rni va fazilatlariga ko'proq e'tibor qaratganliklarini namoyon etadi.

Alisher Navoiyning inson ma'naviy kamoloti sohasidagi qarashlarini o'rganishda mutafakkir shaxsiyatning jamiyatda ayol omiliga bo'lgan murosabati va "Soliha ayol" g'oyaviy, imiy, badiiy, hayoti umumlashma fikrlari - konsepsi bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

**Dilorom SALOHIY,  
SamDCHTI professori,  
filologiya fanlari doktori.**

## Sport-ta'lim muassasalarida shug'ullanish uchun sharoit yaratilganmi?

**Samarqand shahridagi sport-ta'lim muassasalarida shug'ullanish uchun yaratilgan sharoitlar, sport inshootlarining holati va ularning sanitariya talablariga mosligi soha mutasaddilari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida o'rGANIldi.**



va qilibbozlik turlari bilan shug'ullanish uchun sport hamda tibbiyot jihozlariga ehtiyoj mavjud.

Shahardagi 1-sport maktabining holati bir muncha yaxshi. Muassasada 1348 naftar yoshlar 26 ta sport turi bo'yicha shug'ullanmoqda. Sportchilarning 40 naftari O'zbekiston milliy temra jamaosi a'zosi bo'lib, o'tgan yil mamlakat va xalqaro mu-sobaqlarda 250 dan ortiq medalni qo'iga kiritgan. Biroq maktabda asosiy muammo - 160 o'ringa mo'jallangan yopiq suzish havzasi nosoz holatida.

- Suzish havzasi qurilgandan buyon to'rt mavsum to'liq ishlagini yo'q, - deydi sport maktabi direktori Shavkat Bozorov.

- Chunki obyektingiz issiq va sovuq o'tkazadigan izolyatsiya qismi ta'mirlab. Shu bois inshoot yozda issid, qishda sovuq bo'ldi. Bundan bir necha yil oldin vazirlikkacha qilingan murojaatdan so'ng

ishshohti ta'mirlash Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi dasturiga va yaqinda viloyat dasturiga ham kiritilgan edi. Ammo masala hanuz hal etilmaydi.

Keyingi manzil sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi bo'ldi. Yaqinda ushu muassasada qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlanganligi aytilgan edi. Ammo maktab hududiga kirar ekanmiz, yangidan qurilgan asfaltning cho'kib ketgani, turli chiqindilar to'plangani-yu, sport zalida tozalik ishlari olib borilmaganini e'tiborimizni tortdi.

Holat yuzasidan maktab direktori Qahramon Raupovning ma'lum qilishicha, sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi bo'ldi. Yaqinda ushu muassasada qurilish-ta'mirlash ishlari yakunlanganligi aytilgan edi. Ammo maktab hududiga kirar ekanmiz, yangidan qurilgan asfaltning cho'kib ketgani, turli chiqindilar to'plangani-yu, sport zalida tozalik ishlari olib borilmaganini e'tiborimizni tortdi.

O'rghanish davomida Samarqand shahridagi yakka kurash bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi, olimpiya va paralimpiya turlariga tayyorlash markazi, gimnastika va suv sporti komplekslarida ham sanitariya-gigiyena qoidalari taba darajasida emasligi, inshootlarning ta'mirlabligi va chiqindisi tashlash uchun maxsus konteynerlarning yo'qligi, sport jihozlari yetishmasligi hamda ba'zi muassasalarida tibbiy tabarchalar belgilangan normalarga zid ravishda yuritayotganligi aniplandi.

Faziliddin RO'ZIBOYEV.

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 645 nusxada chop etildi. Buyurtma 224. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshnabi, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahfalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.**